



## O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TARIXIY ONOMASTIKANING O'RGANILISHI

**Jalolova Marjona Samariddin qizi**

*Qarshi davlat universiteti*

*1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida tarixiy onomastikaning o'rganilishi, tilshunoslikda antroponimlar tadqiqi aniqlangan, nomshunoslikda o'zbek tarixiy onomastikasi va antroponimikasi materiallarini tadqiq etish qo'llangan onomastik birliklarning lug'aviy-ma'noviy guruhlarini aniqlangan, fors-tojik, arab va turkiy xalqlarning nom qo'yish urf-odatlarini, ularning tarixiy ildizlari, madaniy va diniy omillar bilan bog'liqligi haqida muhim ma'lumotlar jamlangan. Maqolada onomastik birliklar: antroponim, toponim, etnonim, gidronim va boshqa birliklarning semantikasini yoritilgan, asarda qo'llangan arabcha, fors-tojikcha onomastik birliklarning qo'llanish darajasini tahlil qilinganligi bilan ahamiyatli ekanligi ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** antroponimiya, turkman antroponimiyasi, toponim, tarixiy onomastika, antroponim, arabcha, fors-tojikcha

*This article describes the study of historical onomastics in Uzbek linguistics, the study of anthroponyms in linguistics, the study of lexical and spiritual groups of onomastic units used in the study of materials of Uzbek historical onomastics and anthroponymics in onomastics, and summarizes important information about the naming traditions of the Persian-Tajik, Arab and Turkic peoples, their historical roots, and their connection with cultural and religious factors. The article highlights the semantics of onomastic units: anthroponym, toponym, ethnonym, hydronym and other units, and shows their significance in analyzing the level of use of Arabic, Persian-Tajik onomastic units used in the work.*

**Keywords:** anthroponymy, Turkmen anthroponymy, toponym, historical onomastics, anthroponym, Arabic, Persian-Tajik

**Абстрактный:** В данной статье обобщены результаты изучения исторической ономастики в узбекском языкознании, изучения антропонимов в языкознании, изучения лексических и духовных групп ономастических единиц, используемых при изучении материалов узбекской исторической ономастики и антропонимики в ономастике, а также важные сведения о традициях именнаяречения у персидско-таджикских, арабских и тюркских народов, их исторических корнях и их связи с культурными и религиозными факторами. В статье рассматривается семантика ономастических единиц: антропонимов, топонимов, этнонимов, гидронимов и других единиц, а также показана значимость анализа уровня употребления арабских и персидско-таджикских ономастических единиц, использованных в работе.

**Ключевые слова:** антропонимия, туркменская антропонимия, топоним, историческая ономастика, антропоним, арабский, персидско-таджикский



O'zbek onomastikasi, ya'ni nomshunosligi XX asrning ikkinchi yarmidan keyin jadal rivojlangan sohalardan hisoblanadi. Aslida o'tmish davrlarda ham onomastika sohasiga oid ishlar amalga oshirilganligini qayd etish lozim. Bunda Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarning ilmiy-badiiy faoliyatini misol sifatida qayd etish mumkin.

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida bevosita tarixiy-badiiy matnlarda onomastik va antroponimik birliklarni o'rganish bo'yicha Sh.Yoqubovning "Navoiy asarlari onomastikasi", N.Husanovning o'zbek yozma adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari, M.Turdibekovning Abulg'oz Bahodirxonning "Shajarayi turk" onomastikasi<sup>1</sup> hamda S.Raximov<sup>2</sup>, R.Xudoyberganov<sup>3</sup>, M.Tillayeva<sup>4</sup>, Q.Olloyorov<sup>5</sup>, Y.Avlaqulov<sup>6</sup>, R.Nuriddinova<sup>7</sup>, D.Yuldashev<sup>8</sup>larning tadqiqotlari shular jumlasidandir. Mazkur tadqiqotlar o'zbek nomshunosligida o'zbek tarixiy onomastikasi va antroponimikasi materiallarini tadqiq etishda qimmatbaho manba vazifasini o'taydi.

Yozma manbalardagi onomastik materialni o'rganishga bag'ishlangan ba'zi ishlar, asosan, o'zbek folklori onomastikasiga<sup>9</sup> yoki o'zbek badiiy adabiyotidagi obrazlarning atoqli otlarini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, uslubiy xarakterdadir. Biz keyingi ma'noda Y.Solijonov va S.Mo'minov<sup>10</sup>, E.Qilichev<sup>11</sup>, U.Qosimov<sup>12</sup>, R.Qo'ng'urov va M.Mo'minova<sup>13</sup>, Sh.Qozoqov<sup>14</sup> va boshqalarning maqolalarini ko'zda tutmoqdamiz. Ushbu yo'sindagi izlanishlar haqida gap borar ekan, B.Choriyev va F.Eshimovlarning "G'afur G'ulom" asaridagi toponimlar<sup>15</sup> va o'zbek

<sup>1</sup> Yoqubov Sh. Navoiy asarlari onomastikasi. Fil. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 1994. – 24 b.; Husanov N. XV asr o'zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari: Fil. fan. d-ri. diss. – T.: 2014. – 243 b.; Turdibekov M. Shajarayi turk onomastikasi. – T.: Nodirabegim, 2020. -103 b.

<sup>2</sup> Rahimov S. Xorazm mintaqaviy antroponimiyasi: Filol. fanlari nomzodi diss. – Toshkent, 1998. – 23 b.

<sup>3</sup> Xudoyberganov R. O'zbek antroponimiyasi tizimining variantdorligi: Fil. fan. ... nomz. diss. – T., 2008. – 146 b.

<sup>4</sup> Tillayeva M. Xorazm onomastikasi tizimining tarixiy-lisoniy tadqiqi: Fil. fan. ... nomz. diss. – T., 2006. – 26 b.

<sup>5</sup> Olloyorov Q. Xorazm dostonlari onomastikasi: Fil. fan. ... falsafa d-ri avtoref. – Samarqand: 2018. – 53 b.

<sup>6</sup> Avloqulov Y. O'zbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi. Fil.fan. nomz. diss.avtoref. – T., 2012. – 22 b.

<sup>7</sup> Nuriddinova R. O'zbek onomastikasi terminlarining lisoniy tahlili: Fil. fan. nomz. diss. avtoref. – T., 2005. – 20 b.

<sup>8</sup> Yuldashev D. Tarixiy antroponimlarning antropotsentrik tadqiqi: Fil. fanlari d-ri. diss. avtoref. – T., 2021. – 76 b.

<sup>9</sup> Abdurahmonov D., Bektemirov H. O'zbek xalq dostonlari onomastikasi. O'zbek xalq ijodi. – T.: Fan, 1968. – B.110-111.

<sup>10</sup> Solijonov Y., Mo'minov S. Badiiy asar qahramonlari ismlarining muhim vazifasi // O'zbek tili adabiyoti. 2-son. – T., 1984. – B.44-49.

<sup>11</sup> Qilichev E. Ayniy asarlaridagi antroponimlarning stilistik xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. 4-son. – T., 1975. – B.21.

<sup>12</sup> Qosimov U. A.Qahhor qahramonlarining ismlari haqida // O'zbek tili va adabiyoti. 3-son. – T., 1980. – B.16-22.

<sup>13</sup> Қўнғириков Р., Мўминова М. Собственные имена в языке художественной литературы // Ономастика Узбекистана. – T., 1989. – С.124-125.

<sup>14</sup> Казаков Ш. Стилистические функции прозвищ в языке драмы Хамзы // Ономастика Узбекистана. – T., 1987. – С.33-34.

<sup>15</sup> Choriyev B., Eshimov F. G'afur G'ulomning toponimlardan foydalanish mahorati // Ономастика Узбекистана. 1989. – B.95-96.



xalq dostonlaridagi zoonimlar<sup>16</sup> yuzasidan ba'zi kuzatishlarni qayd etib o'tish o'rindir.

Tatar tili antroponimiyasini o'rganish yo'nalishida G.F. Sattarov muhim ilmiy natijalarga erishgan. Uning "Татар антропонимикасы" nomli monografiyasi tatar ismlari tizimining shakllanishi, taraqqiyoti va hozirgi holatini yorituvchi asosli va keng qamrovli tadqiqotdir. Mazkur asarda tatar xalqining tarixiy antroponimlari, ularning kelib chiqishi, o'zgarish bosqichlari va ularni shakllantirgan omillar haqida batafsil tahlillar keltirilgan.

Turkman tilshunosligi doirasida esa S. Ataniyazovning "Turkman ismlarining izohli lug'ati" turkman antroponimiyasiga qo'shilgan muhim ilmiy hissa bo'ldi. Muallif turkiy antroponimiyaning shakllanish tarixini ikki bosqichga — umumoltoy davri va qadimgi turkiy qatlam davriga ajratgan. U umumoltoy davriga oid ismlar haqida batafsil to'xtalmasa-da, ayrim qadimgi so'zlar – *buga, buqa, batir, gök* kabi birliklarni misol sifatida keltirgan.

Shuningdek, tojik tilshunosi A. G'afurovning "Nom va tarix" asari ham onomastik tadqiqotlar qatorida alohida o'rin tutadi. Bu asarda fors-tojik, arab va turkiy xalqlarning nom qo'yish urf-odatlarini, ularning tarixiy ildizlari, madaniy va diniy omillar bilan bog'liqligi haqida muhim ma'lumotlar jamlangan.

Umumiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, turkiyshunoslikda onomastika, ayniqsa tarixiy onomastika bilan bog'liq tadqiqotlarda yuqorida nomlari tilga olingan mualliflarning ilmiy ishlari ko'pincha misol sifatida eslatib o'tiladi. Biroq bu tadqiqotlarga ko'proq umumiy yondashilgan, ularning tarixiy onomastika va tarixiy antroponimikaga qo'shgan aniq hissasi chuqur tahlil qilinmagan. Shu bois, biz ushbu mavzuda aynan tarixiy onomastikani o'rgangan olimlarning ayrim asosli tadqiqotlariga e'tibor qaratishni maqsadga muvofiq deb bildik.

O'zbek tarixiy onomastikasi, ayniqsa Alisher Navoiy asarlari onomastikasi, Sh. Yo'qubov tomonidan chuqur ilmiy o'rganilganini yuqorida eslatib o'tdik. Endilikda esa Sh. Yo'qubov va N. Husanovlarning mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlari yuzasidan ayrim fikrlarni bayon etamiz.

Yozma manbalarda saqlangan tarixiy va badiiy nomlarni o'rganish bo'yicha olib borilgan izlanishlar orasida Sh. Yo'qubovning ishlari alohida ahamiyatga ega. 1994-yilda u tomonidan himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyasi Navoiy asarlari onomastikasiga bag'ishlangan bo'lib, bu sohadagi ilk fundamental tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Olim o'z tahlillarida Navoiy asarlarida 1103 dan ortiq antroponimlar uchrashini aniqlagan. Bu antroponimlar turli ismlar, taxalluslar va laqablarni o'z

<sup>16</sup> Choriyev B.O'zbek zoonimlari (Xalq dostonlari misolida). – B.182-183.



ichiga oladi. Ular shunchaki nom sifatida emas, balki asar uslubiyatida ham muhim funksiyani bajaradi.

Shuningdek, Sh. Yo'qubov tomonidan 359 ta toponim qayd etilgan bo'lib, ular asarlarda geosiyosiy, madaniy va tarixiy kontekstda muhim axborot manbai sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot doirasida nafaqat ismlar va joy nomlari, balki mozar va qabriston nomlari, gumbazlar, astronomlar, etnonimlar, teonimlar va zoonimlar kabi boshqa onomastik birliklar ham tahlil qilingan. Bu jihatdan mazkur tadqiqot Navoiy asarlarining onomastik boyligini kompleks tarzda o'rganishga qaratilgani bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, ishda Navoiy asarlaridagi onomastik birliklarning lug'aviy qatlamlari, uslubiy xususiyatlari ham tahlil qilinib, ular orqali shoirning badiiy mahorati, davrga xos nomlash tamoyillari va madaniy-milliy tafakkur uslubi o'z aksini topgan.

Sh. Yoqubovning tadqiqoti Alisher Navoiy ijodidagi atoqli otlarning lisoniy va uslubiy xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, o'zbek tarixiy onomastikasi, ayniqsa badiiy onomastika rivojida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — buyuk adib asarlarida uchraydigan atoqli otlarni tizimli o'rganish, ularning nominatsion (atash) xususiyatlari, semantik va uslubiy vazifalarini aniqlash, shuningdek, ularning lug'aviy tarkibi, etimologik qatlamlari, tarixiy ildizlari va badiiy funksiyasini yoritishdan iborat bo'lgan.

Sh. Yoqubov tomonidan to'plangan materiallar asosida atoqli otlar turli mezonlarga ko'ra — ularning funksional vazifalari va nomlash shakllariga ko'ra tasniflangan. Bu esa Alisher Navoiy asarlarining nafaqat adabiy, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham qimmatli manba ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

O'zbek adabiy yodgorliklaridagi tarixiy antroponimik qatlamni o'rganishda N. Husanov muhim izlanishlar olib borgan. U "XV asr o'zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan hamda ushbu tadqiqot natijalari asosida "O'zbek antroponimlari tarixi" nomli monografiyasini chop ettirgan.

N. Husanov o'z tadqiqotida XV asrga oid adabiy manbalarda uchraydigan antroponimlarni diniy antroponimlar, badiiy antroponimlar va real (haqiqiy tarixiy shaxs) antroponimlar deb guruhlariga ajratgan. Ayniqsa, payg'ambarlar, ularning avlod-ajdodlari, Temuriylar sulolasiga oid shaxslar nomlari chuqur tahlil etilgan. U nomlarning genetik manbalari, semantik mazmuni, tarixiy va madaniy kontekstdagi o'rni haqida puxta ilmiy mulohazalar bildirgan. Xuddi shunday, xalifalar va avliyolar nomlari ham o'ziga xos tarixiy-ma'naviy yuklama bilan ko'rib chiqilgan.



Umuman, Sh. Yoqubov va N. Husanovlarning ishlari o'zbek tarixiy onomastikasi, ayniqsa, antroponimika bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda muhim bosqich bo'lib, ular sohaning nazariy asoslarini mustahkamlashga katta hissa qo'shgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunga qadar o'zbek tili tarixiy antroponimiyasi, xususan, payg'ambarlar va ularning avlod-ajdodlari, Temuriylar sulolasi vakillari hamda boshqa tarixiy shaxslarning ismlarini lingvistik jihatdan o'rganishga bag'ishlangan eng salmoqli va yagona keng qamrovli tadqiqot N. Husanov tomonidan amalga oshirilgan.

#### Adabiyotlar:

1. Yoqubov Sh. Navoiy asarlari onomastikasi. Fil. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 1994. – 24 b.; Husanov N. XV asr o'zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari: Fil. fan. d-ri. diss. – T.: 2014. – 243 b.; Turdibekov M. Shajarai turk onomastikasi. – T.: Nodirabegim, 2020. -103 b.
2. Rahimov S. Xorazm mintaqaviy antroponimiyasi: Filol. fanlari nomzodi diss. – Toshkent, 1998. – 23 b.
3. Xudoyberganov R. O'zbek antroponimiyasi tizimining variantdorligi: Fil. fan. ... nomz. diss. – T., 2008. – 146 b.
4. Tillayeva M. Xorazm onomastikasi tizimining tarixiy-lisoniy tadqiqi: Fil. fan. ... nomz. diss. – T., 2006. – 26 b.
5. Olloyorov Q. Xorazm dostonlari onomastikasi: Fil. fan. ... falsafa d-ri avtoref. – Samarqand: 2018. – 53 b.
6. Avloqulov Y. O'zbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi. Fil.fan. nomz. diss.avtoref. – T., 2012. – 22 b.
7. Nuriddinova R. O'zbek onomastikasi terminlarining lisoniy tahlili: Fil. fan. nomz. diss. avtoref. – T., 2005. – 20 b.
8. Yuldashev D. Tarixiy antroponimlarning antropotsentrik tadqiqi: Fil. fanlari d-ri. diss. avtoref. – T., 2021. – 76 b.
9. Abdurahmonov D., Bektemirov H. O'zbek xalq dostonlari onomastikasi. O'zbek xalq ijodi. – T.: Fan, 1968. – B.110-111.
10. Solijonov Y., Mo'minov S. Badiiy asar qahramonlari ismlarining muhim vazifasi // O'zbek tili adabiyoti. 2-son. – T., 1984.– B.44-49.
11. Qilichev E. Ayniy asarlaridagi antroponimlarning stilistik xususiyatlari //O'zbek tili va adabiyoti. 4-son. – T., 1975.– B.21.
12. Qosimov U. A.Qahhor qahramonlarining ismlari haqida // O'zbek tili va adabiyoti. 3-son. –T., 1980.– B.16-22.
13. Кўнғиров Р., Мўминова М. Собственные имена в языке художественной литературы // Ономастика Узбекистана. – Т., 1989. – С.124-125.
14. Казаков Ш. Стилистические функции прозвищ в языке драмы Хамзы // Ономастика Узбекистана. – Т., 1987. – С.33-34.
15. Choriyev B., Eshimov F. G'afur G'ulomning toponimlardan foydalanish mahorati // Ономастика Узбекистана. 1989. – B.95-96.
16. Choriyev B.O'zbek zoonimlari (Xalq dostonlari misolida). – B.182-183.